

Turgunova Sitoramo Abduvali qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: **Rashid Zahidov**,
filologiya fanlari doktori

“TURKISTON VILOYATI GAZETI”DA TIL VA IMLO MASALASI YOTIRILISHI

Annotatsiya: O'zbek tilshunosligi tarixiga nazar solsak, katta davrni o'z ichiga qamrab olgan eski o'zbek yozuvi XX asr boshlariga kelib bir qancha o'zgarishlarni boshdan kechirishiga to'g'ri keldi. Yozuv va imlosida yetarli darajadagi xatoliklar tufayli til inqirozga yuz tuta boshlagandi. Asta-sekinlik bilan rivojlana boshlagan publitsistika sohasi orqali bu mavzuni yoritishga qo'l uriladi. Ayni nuqsonlar haqida bahs boradi.

Kalit so'zlar: turkiy, eski o'zbek yozuvi, imlo, jadid.

Annotation: If we look at the history of Uzbek linguistics, the old Uzbek script, which covers a long period of time, had to undergo several changes by the beginning of the 20th century. Due to sufficient level of errors in writing and spelling, the language began to face a crisis. An attempt is made to cover this topic through the field of journalism, which is gradually developing. The same defects are discussed.

Key words: Turkish, old Uzbek script, spelling, Jadid.

XIV asrning ikkinchi yarmidan XIX asr oxirlarigacha mavjud bo'lgan yozma kitobiy til eski o'zbek adabiy tili nomi bilan yuritiladi. O'rta asr turkiy adabiy tillari tarixidagi eng katta va ahamiyatli davr eski o'zbek tili davridir. Ushbu til eski turkiy tilning adabiy-lisoniy an'analari ta'siri ostida shakllandi va o'zbek elatining umumxalq adabiy tili sifatida amalda bo'ldi.

. Turkistonda matbuotning yo'lga qo'yilishi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun ham qulay imkoniyat yaratdi.

ترکستان آسان یدہ یازالغان ایسکی و یانکا کتاب لارغہ قارالسہ خط و املا لاریدہ نہایت درجہ دہ خطا و غلتلار کورنور

"Turkiston lisonida (tilida) yozolg'on eski va yangi kitoblarga qaralsa, xat va imlolarida nihoyat darajada xato va g'alatlar ko'rinur."

Ya'ni, bu yerda eski o'zbek yozuvi imlosida xatolar juda ko'p ekanligi aytilmoqda. Misol tariqasida bir fikr keltiriladi:

القبالارده آق نینگ متقابلی اولان قاره سوزی نینگ قرا یاکی قره صورتیکه کتابت قیلنماقی مبنیلره توشندرمک اوچون نه درجہ دہ مشکل

"...alifbolarda oqning muqobili o'lan "qora" so'zining "qora" yoki "qora" suratida kitobat qilinmoqi muhtadilra tushundirmak uchun ne darajada mushkul?!"

Darhqiqat, birgina so'zning bir necha variantlari bo'lsa, uni xohlaganini qo'llash imkoniyati bo'lsa va bu hech qanday imlovii xato hisoblanmasa, demak, bu tilning kelajagi yo'q. Sababi, haq qanday tilda o'zining me'yor qoidalari borki, shu tarzda ular bir-biridan farqlanadi. Til millatning

eng asosiy belgilaridan biridir. Shuning uchun ham: ""Qachonki, bir millat tilini yo'qotsa, o'z dinini va millatini yo'qotur," - deydi taniqli ma'rifatparvar, yirik tilshunos, lug'atshunos, adabiyotshunos olim, jurnalist va tarjimon, Turkistondagi jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Ashurali Zohiriy.

Shuningdek, muallif ayni shu davrda boshqa bir millat o'z tilidagi nuqsonlarini tuzatib, kamchiliklarni bartaraf etib, til va adabiyot sohasida rivojlanayotganliklarini ham aytib o'tadi:

شول اصرده بدوی ملتار که چه املا و کتابت لارینی توزاتوب اوز ادبیاتلاردین ساقلاو فکرینه توشدیلار تورلی موضوعه ژورنال و غزیتیه لار یازوب باشه چه بوده کوپ فنی و ادبی فنلاردین مطبوعات ویستافکه سینه قویمقده لاردور هم شول نسبتده ادیب شاعر واعظ و کاتب لاریده ارتماقده دور

"Shul asrda badaviy millatlar kecha imlo va kitobatlarini tuzatib, o'z adabiyotlaridin saqlov fikrina tushdilar. Turli mavzuda jurnal va g'azetalar yozub, boshqacha juda ko'p fanniy (fanga oid) va adabiy fanlardin matbuot vistafkasina qo'yimoqdalardur. Ham shul nisbatda adib, shoir, voiz va kotiblarida ortmoqdadir." Muallifning fikricha, agarda til va imlo borasidagi nuqsonlarni bartaraf etilsa, boshqalar kabi bizda ham til va adabiyot sohasi rivojlanib, yetuk mutaxassislar yetishib chiqishiga dalolat bermoqda. Yuqorida keltirilgan millat bilan to'qqiz million aholisi mavjud bo'lgan Rossiya musulmonlari tarafidan chiqadigan gazeta va jurnallar adadini qiyoslab ko'radi. Lekin bularning ildizi bo'lgan yozuv va imlo haqida so'zlamakni afzal biladi.

Shu qatorda muallimlarga murojaat qilinar ekan, bu borada ularning ham mulohaza yuritishlarini istaydi:

ای معلم جناب لاری اوزلارنگز اوایلای قارانگز ترک و تاتار بالالاری بر یل ایچینده ترکی یازوب اوقورغه بلدکلاری حالده اولاد ترکستان ترکی اوقوب سازه بلماکی اوچون اوچ تور ت یل عمر ترضیع قیلادور لار سبب نه البته و البته ترتیب تعلیم ده تصورلق املا و خط ده بولغان اغرلیق و خطالقلارینده دور

" Ey, muallim janoblari, o'zlaringiz o'ylab qarangiz, turk va tatar bolalari bir yil ichinda turkiy yozub o'qurg'a bildiklari holda avlodi Turkiston turkiy o'qub yoza bilmagi uchun uch, to'rt yil umr ta'ziya qiladurlar. Sabab ne? Albatta, va, albatta, tartib-u ta'limda tasavvurliq imlo va xatda bo'lg'on og'irliq va xatoliqlarindur."

Ustozlarga qilingan ushbu murojaatdan ko'rinib turibdiki, turk va tatar bolalari bizga qaraganda tezroq turkiy tilni yozib o'qishni o'rganadilar. Bunga eng katta sabab esa, albatta, yozuvimizdagi noaniqlik va xatolarimizda ekanligi ko'rsatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yozuv jamiyatda muhim rol o'ynaydi va uning bir qancha asosiy funksiyalari mavjud. Yozuv nafaqat axborot almashish vositasi, balki madaniyat, tarix va identitetni saqlash va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, biz "Turkiston viloyati gazetasi"ga yozilgan ushbu maqolani bugungi kunga ham tadqiq etsak bo'ladi. Tarixdan va unda qilingan xatolardan saboq chiqargan holda xalqni savodini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni inkor etmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Turkiston viloyati gazetasi", 1912, 34-son;
2. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, H.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Iqism), - T.:O'qituvchi, 1980;
3. Y.Saidov. O'zbek adabiy tili tarixi, - B.:Durdona, 2019;
4. A. Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi, Toshkent – "O'zbekiston" – 2002;

5. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. -T.:Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi , 2004;
6. Jamolxonov H., Umarov A. O‘zbek yozuvining XX asr tarixi (I kitob), -T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2017.